

JADIDLARNING MUSIQA PEDAGOGIKASIGA QO'SHGAN HISSASI

Qodirov Farruxbek Mahamadjonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlarning musiqa pedagogikasiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berilgan. Jadidlar maktablari haqida fikrlari yuritilgan va mutafakkir olimlarning ilmiy izlanishlari haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, jadid, musiqa, maktab, ma'rifat.

Аннотация: В статье представлена информация о вкладе джадидов в музыкальную педагогику. Рассматриваются школы джадидов и освещаются научные исследования мыслителей.

Ключевые слова: педагог, джадид, музыка, школа, просвещение.

Annotation: This article provides information about the contribution of Jadids to music pedagogy. It discusses Jadid schools and highlights the scientific research of thinkers.

Keywords: pedagogue, Jadid, music, school, enlightenment.

Kirish

Ma'rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma'naviy holati darajasini yaxshi bilganlar. Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiy madaniy saviyasini davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chorlash zarurligini chuqur anglab etganlar. Xalqni Evropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg'or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da'vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma'rifatparvarlar birinchilardan bo'lib tushunib etganlar. «Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a sura boshladi. Yangi ta'lim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikr-g'oyalar oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib qilindi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o'z ahvolini yaxshilashga intilishning ko'rinishlaridan edi». Jadidchilikning asosiy mohiyati millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan chiqarishga qaratilgan.

XX asr o'zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir. «Usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan shuxrat topgan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qilganlar. Shular birinchi bo'lib zamonaviy oliy maktab g'oyasini ilgari surdilar,

o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan-kancha yoshlarni taraqqiy qilgan Evropa mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbek teatrining birinchi g'ishtini ko'ygan, nashru matbuotini boshlab bergan ham shulardir.

Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloлга tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatlarining tepasida Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Xamza, Sadridin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o'nlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar.

Adabiyotshunoslik ilmidagi Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Elbek, Cho'lpon, Usmon Nosir va boshqa shu kabi ma'rifatchi jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari o'rganilgan. Cho'lpon o'tgan asrning boshlarida o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib, barmoq vaznida jozibali she'rlar, realistik hikoya hamda roman yozgan ijodkor. Biroq uning ijodini faqat poeziya bilan chegaralash mumkin emas. U bir vaqtning o'zida ham shoir, ham dramaturg, ham nosir hamda adabiy tanqidchi sifatida ham ijod qildi. Abdulhamid Cho'lpon ijodining g'oyaviy asoslari xalqni ma'rifatli qilish, badiiy dunyoqarashini boyitish, go'zallikka muhabbat uyg'otish kabi yetakchi tamoyillarga tayanadi va ularni inson kamoloti, xalq hayoti va jamiyat ma'naviy yuksalishidan ayri holda tasavvur etish mumkin emas. Cho'lpon she'riyatidagi obrazlilik, shoirning poetik mahorat masalalarini o'rganish orqali ijodkor dunyoqarashi va badiiy niyatini ko'rsatib berish ishning dolzarbligini tashkil etadi.

Jadid maktablarning vujudga kelishi. Jadidlar tuzgan maktablarda aholiga ilmiy – ommabop bilim berish muhim pedagogik vazifa hisoblanar edi. Shu bilan birga bu maktablardagi bilimlar sodda va tushunarli holda ifoda etilardi. Bu maktablarda diniy bilimlar bilan birga hayotda eng zarur bo'ladigan ilmiy bilimlar, ya'ni ona tili, riyoziyot, jug'rofiya fani asosan o'lkashunoslik materiallari asosida o'rganilardi. Bolalar intizomiga jadid maktablarida alohida e'tibor berilar, bolalarga ta'lim – tarbiya berishda dinning tarbiyaviy ahamiyatidan samarali foydalanilar edi. Katta moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan iqtidorli bolalar tahsil olish uchun chet ellarga yuborilardi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarning XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan Turkiston o'lkasidagi maktablar taraqqiyoti tarixiga oid bilimlarga ega bo'lishlari, o'z navbatida ularning bo'lg'usi pedagogik faoliyatlariga

ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchilarimiz o'tgan asrning oxiri va asrimiz boshlarida vujudga kelgan barcha tipdagi o'quv muassasalarining o'quv jarayoning tashkil etilish yo'llariga va o'qitish uslublariga tanqidiy yondashgan holda ularning o'z faoliyatlarida samarali foydalanishlari mumkin. Jumladan, maktab o'quvchilarining o'zaro muloqatlarida uchrab turadigan salbiy holatlar, bolalarning individual xususiyatlariga o'qituvchilar tomonidan etarlicha e'tibor qaratilayotmaganligi va umuman zamonaviy maktablarda tartib-intizomning juda susayib ketganligi xuddi gimnaziya va seminariyalarda bo'lgani kabi bolalarga pedagogik va ruhshunoslik fanlarini birga qo'shib o'rgatishni taqozo etmoqda. Bundan tashqari bo'lajak o'qituvchilarni etishtirib chiqarayotgan oliy o'quv yurtlarimiz, pedagogika bilim yurtlarimizda ham pedagogika va ruhshunoslik fanlariga ajratilgan soatlar miqdorini yanada oshirish hamda iloji boricha bu ikki fanni birga qo'shib o'qitish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 1991-yil 4-oktyabr kungi soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotini berish to'g'risi"da "gi Farmoni Qaralgan sana=17.10.2024" (<http://press.natlib.uz/>).
2. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 1991-yil 4-oktyabr kungi soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponni "Mustaqillik" ordeni bilan mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni Qaralgan sana=17.10.2024" (<http://press.natlib.uz/>).
3. "O'zbekiston ovozi" gazetasi 1997-yil 22-fevral kungi soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LPON TAVALLUDINING 100 YILLIGINI NISHONLASH TO'G'RISIDA"gi Farmoni Qaralgan sana=17.10.2024" (<http://press.natlib.uz/>).
4. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 21-oktyabrdagi "Andijon davlat tillar pyedagogika institutiga abdulhamid sulaymon o'g'li-cho'lpon nomini byerish to'g'risida" qarori Qaralgan sana=17.10.2024" (lex.uz/).